



## ABU LAYS SAMARQANDIYNING ILMIY FAOLIYATI VA TAFSIR ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

Mirzamiddinov Asliddin Abdumuminovich

Toshkent islom insitituti o'qtuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20826944>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-iyun 2026 yil  
Ma'qullandi: 22-iyun 2026 yil  
Nashr qilindi: 24-iyun 2026 yil

### KEYWORDS

Abu Lays Samarqandiy, "Bahr al-ulum" tafsiri, tafsir ilmi, fiqh, aqid, "Tanbeh al-g'ofilin", "Bo'ston al-orifin", Movarounnahr, hanafiy mazhabi, ilmiy meros.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada buyuk alloma, hanafiy mazhabining yetuk faqih, muhaddis va mufassiri Abu Lays Samarqandiyning hayoti, ilmiy faoliyati hamda tafsir ilmiga qo'shgan ulkan hissasi yoritiladi. Maqolada allomaning to'liq nomi, kunyasi, taxalluslari, tug'ilgan va vafot etgan yillari, yashagan davr ijtimoiy-siyosiy muhiti, ustozlari va shogirdlari, ilmiy merosi, xususan, tafsir sohasidagi asarlari tahlil qilinadi. Abu Lays Samarqandiyning "Bahr al-ulum" tafsiri va boshqa asarlari orqali Qur'on ma'nolarini xalq ommasiga yetkazish, tafsir ilmini rivojlantirish, unda axloqiy-ma'naviy tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratish kabi jihatlar o'rganiladi. Shuningdek, allomaning fiqh, aqid, tasavvuf va didaktika sohalariidagi merosi ham qisqacha tahlil etiladi.

Islom sivilizatsiyasi tarixida Movarounnahr zamini o'zining ulug' allomalari va boy ilmiy merosi bilan alohida ajralib turadi. Aynan shu diyor IX-X asrlarda nafaqat siyosiy, balki ilmiy-ma'naviy taraqqiyotning muhim markaziga aylangan edi. Bu davrda yashab ijod qilgan ko'plab olimlar orasida Abu Lays Samarqandiy (taxminan 301-393/310-396 h.q.) o'zining sermahsul faoliyati va ko'p qirrali ilmiy merosi bilan ajralib turadi. U fiqh, tafsir, hadis, aqid, tasavvuf, axloq va boshqa ko'plab sohalarda o'z qalamini sinab ko'rgan, zamondoshlari orasida "al-Faqih" (ya'ni, mutlaq faqih) va "Imomul-hudo" (Hidoyat imomi) kabi yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan allomadir.

Ushbu maqolaning maqsadi Abu Lays Samarqandiyning hayot yo'li, ilmiy faoliyati va, ayniqsa, tafsir ilmiga qo'shgan hissasini atroflicha yoritib berishdir. Allomaning tafsir sohasidagi yondashuvlari va uslubi Movarounnahr tafsir maktabining shakllanishidagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

**Abu Lays Samarqandiy hayoti va ilmiy muhiti.** Abu Lays Samarqandiyning to'liq ismi Nasr ibn Muhammad ibn Ibrohim al-Xattob as-Samarqandiy at-Tuziy al-Balxiydir. U Samarqandda tug'ilgan, shu sababli "as-Samarqandiy" nisbasi bilan mashhur bo'lgan. Manbalarda uning tavallud topgan yili aniq ko'rsatilmagan, biroq ayrim olimlarning taxminiga ko'ra, u hijriy 301-310 yillari oralig'ida tug'ilgan. Abu Lays Samarqandiyning vafot etgan yili

xususida manbalarda turlicha ma'lumotlar mavjud: hijriy 373, 375, 376, 383, 385, 393 va 396 yillar keltirilgan. Bu xilma-xillik o'sha davrda uning vafoti munosabati bilan yozuvlarning yetarlicha aniq bo'lmaganidan dalolat beradi.

Allomaning "Abu Lays" kunyasi uning ismidan ko'ra mashhurroq bo'lgan. Ushbu kunya bilan birga "al-Faqih" taxallusi ham ko'p ishlatilgan. Rivoyat qilinishicha, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning o'zlari tushida Abu Lays Samarqandiyga murojaat qilib, uni "Faqih" deb ataganlar. Bu hol allomaning fiqh ilmidagi yuksak martabasiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlagan. Shuningdek, u "Imomul-hudo" taxallusi bilan ham mashhur bo'lib, bu taxallusda alloma Abu Mansur Moturidiy bilan sherikdir.

Abu Lays Samarqandiy Samarqand shahrida yashab ijod qilgan. Samarqand o'sha davrda nafaqat Movarounnahr, balki butun islom olamining muhim ilmiy markazlaridan biri edi. Bu yerda hadis, tafsir, fiqh, arab tili va boshqa islomiy fanlar rivojlangan, turli mamlakatlardan talabalar ilm olish uchun kelgan. Somoniylar davrida (IX-X asrlar) bu mintaqada ilm-fan va madaniyatga alohida e'tibor qaratilgan, podshohlar o'zlari ham ilmiy majlislarda qatnashgan va ulamolarni qo'llab-quvvatlagan. Aynan shu davrda Movarounnahrda Abu Lays Samarqandiy, Abu Mansur Moturidiy, Hakim Samarqandiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk allomalar yetishib chiqqan. Bu muhit allomaning ilmiy kamol topishida muhim omil bo'lgan.

Abu Lays Samarqandiy dastlabki ta'limni otasi Muhammad ibn Ibrohim Tuziydan olgan. Otasi taqvodor va faqih bo'lib, o'g'lining birinchi ustozlari hisoblangan. Keyinchalik Abu Ja'far Hinduvoniy (Balxiy), Xalil ibn Ahmad Qozi Sijziy, Muhammad ibn Fazl Balxiy Mufassir kabi o'z davrining yetuk olimlaridan saboq olgan. Uning shogirdlari orasida Luqmon ibn Hakim Farg'oniy, Nuaym Xatib Abu Molik, Muhammad ibn Abdurrahmon Zubayriy, Ahmad ibn Muhammad Abu Sahl va Tohir ibn Muhammad Haddodiy kabi olimlar bor.

**Abu Lays Samarqandiyning ilmiy faoliyati.** Abu Lays Samarqandiy o'z davrining ko'p qirrali olimi bo'lgan. U fiqh, tafsir, hadis, aqoid, tasavvuf, axloq va boshqa fanlarda qalam tebratgan. Uning ilmiy merosi nihoyatda keng va sarmahsuldir. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, uning 40 dan ortiq asari bo'lib, ularning ko'pchiligi fiqh, tafsir, aqoid va didaktikaga bag'ishlangan.

**Fiqh sohasidagi faoliyati.** Abu Lays Samarqandiyning "al-Faqih" taxallusi bejiz emas. U hanafiy mazhabining o'z davridagi yetakchi namoyandalardan biri bo'lgan. Fiqh sohasida u quyidagi muhim asarlarni yozgan: "Xizonat al-fiqh" (Fiqh xazinasi), "Uyun al-masoil" (Masalalarning sarchashmalari), "An-navozil fil-fatovo" (Voqealar), "Al-Mabsut fi furu' al-fiqh al-Hanafiy", "Sharh al-jomi' al-kabir" va "Sharh al-jome' as-sag'ir", "Muqaddima fi bayon al-kaboir vas-sag'oir" kabi asarlar uning fiqh sohasidagi yetukligini ko'rsatadi. U tarixda birinchi bo'lib o'zidan oldingi hanafiy olimlarining fatvolarini jamlab, ularni tizimli ravishda kitob holatiga keltirgan. Bu orqali u fiqh ilmida yangi uslub va yondashuvlarni joriy qilgan.

**Aqoid sohasidagi faoliyati.** Abu Lays Samarqandiy tavhid, munozara va kalom ilmida ham mashhur bo'lgan. Uning bu sohadagi asarlari orasida "Kitob bayon aqoid al-usul", "Usuli din", "Risola fil-ma'rifati val-iymon", "Risolat fil-hukm", "Qurrat an-nafs fi ma'rifat al-arkon al-xams" kabi kitoblar bor. U o'z asarlarida iymon masalalariga alohida e'tibor qaratgan va ularni falsafiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan.

**Zuhd va raqoiq sohasidagi faoliyati.** Abu Lays Samarqandiyning eng mashhur asarlaridan biri - "Tanbeh al-g'ofilin" (G'ofillarga tanbeh) dir. Bu asar 94 bobdan iborat bo'lib, unda axloqiy-ma'naviy tarbiya, gunohlardan saqlanish, taqvo va ibodat masalalari yoritilgan.

Yana bir mashhur asari – “Bo’ston al-orifin” (Oriflar bo’stoni) ham axloqiy-didaktik mazmunda bo’lib, unda payg’ambarlar, sahobalar va xalifalar tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Bu ikki asar bugungi kunda ham o’zbek tiliga tarjima qilinib, o’quvchilar orasida keng tarqalmoqda.

**Tafsir sohasidagi faoliyati.** Abu Lays Samarqandiyning tafsir sohasidagi faoliyati uning ilmiy merosining eng muhim qismini tashkil etadi. U “Tafsir al-Qur’an” va “Bahr al-ulum” (Ilmlar dengizi) nomli tafsir asarlarini yaratgan. Ayniqsa, “Bahr al-ulum” tafsiri o’zining keng qamrovliligi, xalq tiliga yaqinligi va sodda uslubi bilan ajralib turadi.

Abu Lays Samarqandiy tafsirida Qur’on oyatlarini izohlashda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratgan:

**1.Lug’aviy tahlil.** U oyatlardagi so’zlarning etimologiyasi, lug’aviy ma’nolari va Qur’on ilmlariga oid tushunchalarni batafsil bayon qilgan.

**2.Fiqhiy yondashuv.** Alloma oyatlardan fiqhiy hukmlar chiqarishga alohida e’tibor qaratgan. Uning tafsiri hanafiy mazhabi fiqhining asosiy manbalaridan biri bo’lib xizmat qilgan.

**3.Axloqiy-ma’naviy tarbiya.** Abu Lays Samarqandiy oyatlarni sharhlashda axloqiy-odobiy jihatlarga katta ahamiyat bergan. U tafsir orqali o’quvchilarda taqvo, ixlos, sabr va boshqa fazilatlarni tarbiyalashni maqsad qilgan.

**4.Tasavvufiy jihatlari.** Alloma tafsirida tasavvuf va zuhd masalalariga ham o’rin bergan. Bu uning “Tanbeh al-g’ofilin” va “Bo’ston al-orifin” kabi asarlari bilan uzviy bog’liqdir.

**5.Xalq tiliga yaqinlik.** Abu Lays Samarqandiy o’z tafsirida murakkab ilmiy atamalardan qochib, oddiy xalq tushunadigan sodda va ravon tilda yozishga harakat qilgan. Bu esa uning tafsirini keng omma orasida mashhur bo’lishiga sabab bo’lgan.

Abu Lays Samarqandiy tafsirida nafaqat o’zidan oldingi mufassirlarning fikrlarini jamlagan, balki ularga o’ziga xos yangi yondashuvlar, hayotiy misollar va aqliy dalillar bilan boyitgan. U tafsirni Qur’on va hadislar bilan birga, hayotiy voqelik, aql-idrok va xalqlarning urf-odatlariga asoslanib yozgan. Bu esa uning tafsirini boshqa tafsirlardan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir.

**Abu Lays Samarqandiyning tafsir ilmiga qo’shgan hissasi va uslubiy yangiliklari.** Abu Lays Samarqandiy Movarounnahr tafsir maktabining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o’ynagan. Uning tafsirga qo’shgan quyidagi hissalarini alohida ta’kidlash lozim:

– Tafsirni xalq ommasiga yaqinlashtirish. Alloma ilmiy murakkabliklarni chetlab, oyatlarni oddiy va tushunarli tilda sharhlagan. Bu orqali Qur’on ma’nolari keng xalq ommasiga yetib borgan.

– Tafsir va fiqhning uyg’unligi. Abu Lays Samarqandiy tafsirida fiqhiy hukmlarni batafsil bayon qilgan. Bu usul keyingi davr mufassirlari, jumladan, Burhoniddin Marg’inoniy va boshqa olimlarning tafsir va fiqh sohasidagi ishlariga asos bo’lib xizmat qilgan.

– Tafsir va axloqning bog’liqligi. U oyatlarni sharhlashda axloqiy-odobiy jihatlarga alohida urg’u bergan. Bu orqali Qur’on nafaqat huquqiy, balki ma’naviy-tarbiyaviy manba sifatida ham talqin etilgan.

– Tafsir va tasavvufning uyg’unligi. Alloma tafsirida tasavvufiy tushunchalar, zuhd va taqvo masalalariga ham e’tibor qaratgan. Bu usul uning asarlarini tasavvuf yo’nalishidagi olimlar uchun ham muhim manbaga aylantirgan.

– Tafsirning amaliy hayotga tatbiqi. Abu Lays Samarqandiy oyatlarni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy hayotga tatbiq etish nuqtai nazaridan ham sharhlagan. U insonning kundalik hayotidagi muammolar, ijtimoiy munosabatlar va boshqa masalalarga oyatlar asosida yechim taklif qilgan.

– Tafsirda yangi uslub – “hayotiy tafsir” asoslari. Abu Lays Samarqandiy Qur’on oyatlarini xalqlarning urf-odatlarini, hayotiy voqelik va aqliy dalillar bilan bog’lab tafsir qilgan. Bu usul keyinchalik “ijtimoiy tafsir” yoki “hayotiy tafsir” deb atalgan yo’nalishning dastlabki namunalaridan biri bo’lgan.

Abu Lays Samarqandiyning tafsiriy faoliyati faqat Qur’on matnini tushuntirish bilan chegaralanib qolmagan. U tafsir orqali jamiyatning diniy-ma’naviy hayotini shakllantirish, odamlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash va ularda Allohga bo’lgan muhabbatni mustahkamlashni maqsad qilgan.

**Tafsiriy merosining o’rni va ahamiyati.** Abu Lays Samarqandiyning "Bahr al-ulum" tafsiri keyingi davr mufassirlari uchun muhim manba bo’lib xizmat qilgan. Ushbu tafsirda qo’llanilgan uslub va yondashuvlar keyinchalik Movarounnahr, Xuroson va butun islom olamida tafsir ilmining rivojlanishiga turtki bo’lgan. Abu Lays Samarqandiy tafsiri o’z davrida Qur’oni o’rganish va tushunishda keng qo’llanilgan. Uning tafsiri nafaqat o’quvchilarga, balki boshqa olimlarga ham manba bo’lib xizmat qilgan. Allomaning tafsiriy merosi hozirgi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. “Bahr al-ulum” tafsirining qo’lyozma nusxalari turli mamlakatlar kutubxonalarida saqlanmoqda va ular ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Abu Lays Samarqandiy tafsir ilmidagi yangiliklari va uslubiy yondashuvlari bilan Movarounnahr tafsir maktabining shakllanishida muhim rol o’ynagan. U o’z tafsirida Qur’oni faqat diniy matn sifatida emas, balki hayotiy qo’llanma, axloqiy mezon va ijtimoiy adolat asosi sifatida talqin qilgan. Bu esa uning tafsirini boshqa mufassirlarning asarlaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir.

**Xulosa.** Abu Lays Samarqandiy – o’z davrining buyuk allomasi, hanafiy mazhabining yetakchi faqihi, muhaddis va tafsir olimi sifatida islom ilm-fani tarixida alohida o’rin tutadi. Uning ilmiy merosi, xususan, tafsir sohasidagi faoliyati Qur’oni Karim ma’nolarini xalq ommasiga yetkazish, tafsir ilmini rivojlantirish, unda axloqiy-ma’naviy tarbiya masalalariga e’tibor qaratish, yangi uslub va yondashuvlarni joriy qilish orqali islom tafsirshunosligiga katta hissa qo’shgan.

Abu Lays Samarqandiyning "Bahr al-ulum" tafsiri o’zining keng qamrovliligi, sodda uslubi va hayotiy misollar bilan boyitilganligi bilan ajralib turadi. U tafsir va fiqh, tafsir va tasavvuf, tafsir va axloq sohalarini uyg’unlashtirgan holda, islomiy ilmlarni bir-biri bilan chambarchas bog’lagan. Allomaning tafsirga qo’shgan hissasi nafaqat o’z davrida, balki keyingi asrlarda ham o’z ahamiyatini saqlab qolgan.

Abu Lays Samarqandiyning hayoti va ilmiy faoliyati shuni ko’rsatadiki, u nafaqat o’z davrining yetuk olimi, balki islom ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo’shgan alloma sifatida tarixda abadiy qoladi. Uning ilmiy merosini o’rganish, tafsir ilmidagi uslubiy yangiliklari va yondashuvlari bugungi kun tafsirshunoslari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Alloma asarlarida keltirgan “Yozganlarimni odamlar asrlar osha o’tib o’qisalar, bu ilm-fanga muhabbatlarining nishonasi bo’ladi”, degan so’zlari bugun o’z isbotini topgan. Uning asarlari bugun ham o’qilmoqda va ilm-fanga ehtirom ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Muhammad Muhyiddin Hanafiy. Al-javohir al-muziyya fi tabaqot al-hanafiyya. – Hindiston: Majlis doira al-maorif an-nizomiyya, 1332. – J. III. – B. 544.;
2. Hoji Xalifa. Kashf az-zunun an asami al-kutub va al-funun. – Bayrut: Ihya at-turos al-arabiy, 1418. – J. II. – B. 1187.;
3. Shamsiddin Muhammad ibn Ali Dovudiy. Tabaqot al-mufassirin. – Madina: Maktaba al-ulum va al-hikam, 2000. – J. II. – B. 245.;
4. Umar Rizo. Mo'jam al-muallifiyn. – Bayrut: Ihya at-turos al-arabiy, 1993. – J. XIII. – B. 91.;
5. Xayriddin Zirkiliy. Al-a'lam. – Bayrut: Dor al-ilm lil-malayin, 1986. – J. VIII. – B. 348.
6. Kataib a'lam al-axbor (Maxtuta) – B. 126.



INNOVATIVE  
ACADEMY